

THE IMAGE OF LAYLI AND RELATED FEMALE CHARACTERS IN ABDURAHMON JAMI AND ALISHER NAVOI'S "LAYLI AND MAJNUN" POEMS

Aziza Mavlonjonovna AVEZOVA

PhD student

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan

ABDURAHMON JOMIY VA ALISHER NAVOIY "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONLARIDAGI LAYLI VA UNGA YONDOSH OBRAZLAR

Aziza Mavlonjonovna AVEZOVA

Doktorant (PhD)

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ЛЕЙЛИ И СВЯЗАННЫЕ С НЕЮ ОБРАЗЫ В ПОЭМАХ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ И АЛИШЕРА НАВАИ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН»

Азиза Мавлонжоновна АВЕЗОВА

Докторант PhD

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
Ташкент, Узбекистан azizaavezova28@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Avezova A. M. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonlaridagi Layli va unga yondosh obrazlar // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 232-244.

<https://doi.org/10.36078/1762423729>

Received: August 14, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Abdurahmon Jami and Alisher Navoi are masters of the word who enriched classical Eastern literature with unique and inimitable artistic images. In their works, all characters — from the main protagonists to episodic figures — possess individual traits and distinctive qualities. These images evoke a strong aesthetic response in readers and inspire repeated reading.

In classical literature, the tradition of character creation often exhibits a certain degree of repetition. However, this repetition does not imply mere imitation; rather, it manifests through reinterpretation of existing images in new forms. Traditional artistic symbols are enriched with new meanings, aesthetic dimensions, and ideological interpretations within each era, author, and work. This tendency is particularly evident in the creative legacy of Abdurahmon Jami and Alisher Navoi.

This article presents a comparative analysis of the image of Layli in Jami's and Navoi's "Layli and Majnun" epics. The study also examines the role of secondary female characters — such as Layli's mother, nurse, and friends — in revealing Layli's inner experiences and shaping her overall image.

Keywords: sufism; epic; ghazal; image; episodic image; figurative love; social tragedy.

Annotatsiya. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida sharq mumtoz adabiyotini o'ziga xos va betakror badiiy obrazlar bilan boyitgan so'z san'atkorlaridir. Ularning asarlarida bosh qahramonlardan tortib, epizodik obrazlarga — barchasi individual xarakter va xususiyatlarga ega. Ular o'quvchida kuchli

estetik zavq uygʻotishi bilan eʼtiborlidir. Bunday obrazlar asarni qayta-qayta mutolaa qilishga undaydi. Mumtoz adabiyotda obraz yaratish anʼanalari muayyan doiralarda takroriylik xususiyatiga ega. Biroq bu takroriylik bevosita nusxa koʻchirish emas, balki mavjud obrazlarning har safar yangi qiyofada talqin etilishi orqali namoyon boʻladi. Anʼanaviy badiiy timsollar har bir davr, muallif va asar doirasida yangi maʼno, estetik yuk va gʻoyaviy talqin bilan boyitiladi. Ayniqsa, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida bu yaqqol koʻzga tashlanadi. Maqolada Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonlaridagi Layli obrazi qiyosiy tahlil etilgan. Asosiy qahramonlarning xarakteri, ichki kechinmalarini ochib berishda epizodik obrazlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Laylining onasi, enaga, Laylining dugonalari kabi epizodik obrazlarning Layli obrazini toʻliq shakllantirishdagi roli qiyosiy oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: tasavvuf; doston; gʻazal; obraz; epizodik obraz; majoziy ishq; ijtimoiy fojia.

Аннотация. Абдурахмон Джами и Алишер Навоӣ — выдающиеся мастера слова, обогатившие восточную классическую литературу неповторимыми и самобытными художественными образами. В их произведениях все персонажи — от главных героев до второстепенных фигур — наделены индивидуальными чертами и внутренней завершенностью. Эти образы вызывают у читателя глубокое эстетическое переживание и побуждают вновь и вновь возвращаться к прочтению произведений. В традиции классической литературы создание образов зачастую сопровождается элементами повторяемости. Однако эта повторяемость не означает простого подражания: она проявляется в новом истолковании уже существующих персонажей, в их художественном переосмыслении. Традиционные поэтические символы в каждом времени, у каждого автора и в каждом произведении обретают новое значение, эстетическое наполнение и идейное звучание. Особенно ярко эта особенность заметна в творчестве Абдурахмона Джами и Алишера Навоӣ. В статье проводится сравнительный анализ образа Лейли в поэмах Джами и Навоӣ «Лейли и Маджнун». Отдельное внимание уделяется эпизодическим женским персонажам — матери Лейли, кормилице, подругам героини, — чья роль оказывается существенной в раскрытии внутреннего мира главной героини и в формировании целостного художественного образа Лейли. Исследование показывает, что именно взаимодействие главного и побочных персонажей позволяет глубже понять духовное содержание произведений, их суфийскую символику и трагизм любовного конфликта.

Ключевые слова: суфизм; эпос; газель; образ; эпизодический образ; образная любовь; социальная трагедия.

Kirish

“Layli va Majnun” mavzusida yuzdan ortiq dostonlar yaratilgan boʻlib, har bir muallif badiiy anʼalarini ijodiy davom ettirgan holda, ularga oʻzining estetik ideali, falsafiy fikr-qarashlari singdirgan. Shu bois har bitta “Layli va Majnun” dostoni talqini oʻz davrining ijtimoiy-maʼnaviy muhitini, adabiy-estetik tamoyillarini aks ettiradi. Mazkur doston syujeti asosida yaratilgan asarlarning koʻpligi — bu mavzuning insoniyat

madaniyatidagi o'lmasligi va universalligidan dalolat beradi. Xususan, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodidagi "Layli va Majnun" dostonlari Sharq mumtoz adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi.

Mazkur asarlarni qiyosiy tahlil qilishda qiyosiy-tarixiy metod alohida ilmiy ahamiyatga egadir. Ushbu metod yordamida turli davr va makonlarda yaratilgan dostonlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, ularning o'zaro ta'sirini, shuningdek, an'anadan novatorlikka o'tish jarayonini ilmiy asosda tahlil etish imkoniyati yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy "Layli va Majnun" dostonlarini qiyosiy o'rganish nafaqat mazkur adiblarning ijodiy individual xususiyatlarini yoritib berishga, balki butun Sharq adabiy an'anasining rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Jomiy va Navoiy yaratgan obrazlar o'ziga xos va betakrordir. Ularning asarlarida bosh qahramonlardan tortib, epizodik obrazlargacha bo'lgan barcha qahramonlar individual xarakter va xususiyatlarga ega.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda obraz yaratish an'analari muayyan doiralarda takroriylik xususiyatiga ega. Biroq bu takroriylik bevosita nusxa ko'chirish emas, balki mavjud obrazlarning har safar yangicha qiyofada talqin etilishi orqali namoyon bo'ladi. An'anaviy badiiy timsollar har bir davr, muallif va asar doirasida yangi ma'no, estetik yuk va g'oyaviy talqin bilan boyitiladi.

San'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. San'atkor hayotni kuzatadi, kuzatgan voqealarini tafakkuridan o'tkazadi, ularni qayta ishlab yana jonli hayot shaklida yaratadi. Jomiy va Navoiy tomonidan yaratilgan "Layli va Majnun" dostonlari obrazlari orqali biz nafaqat o'sha davrning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayoti haqida muhim tasavvurlar hosil qilamiz, balki ilohiy muhabbat va irfon konsepsiyasining badiiy talqinini ham ko'ramiz.

Dostonlardagi bosh qahramonlaridan biri Layli obrazidir. Har ikki dostonda ham Layli obrazi ota-onaning yakka-yu yagona farzandi, davlatmand xonadonda o'sgan bo'lsa-da, hoy-u havasga berilgan tantiqlardan emas.

Layli obrazi Alisher Navoiy asarida Jomiydan farqli o'laroq, 14-15 yoshli qiz emas. Qaysi 4-5 yoshga kirganida maktabga berishgan bo'lsa, Layli ham chamasi shu yoshlarda. Navoiy dostonida Jomiy asarida uchramaydigan — Laylining betobligi bois maktabga qatnamasligiga aloqador epizodik tasvir mavjud.

Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyning shu nomdagi dostonlarida mavjud bo'lmagan ushbu motiv Suhayliy [Belal Saber 2004: 172] ning dostonida uchraydi.

Ushbu masalaga aloqador an'anadan tashqarida bo'lgan boshqa bir taxminni keltirmoqchimiz. Navoiyning yoshlik chog'lari tartiblangan g'azallaridan tashkil topgan "Ilk devon"da quyidagi g'azal keladi:

Qilg'on ermish notavon sarvi ravonimni maraz,
Zor o'larmenkim, qilibtur zori jonimni maraz.
Chun topar ozor jononim marazdin yo'q ajab,

Aylasa ozurda joni notavonimni maraz.

Gar marazning lozimi dard o'ldi bilmon, ey ko'ngul,
Dardmand etgaymu, oyo, dilistonimni maraz.

Sadqasi aylang meni mardudni ey do'stlar,
Kim zaif etmish ulustin tanlag'onimni maraz.

Dardlig' ko'nglin, bilagin istaram kim ko'yida,
Qilmish ul overayi bexonumonimni maraz.

Yuz tuman mandek kuhan pir o'lsa aning sadqasi,
Qilmasun ozurda, yo Rab, navjavonimni maraz.

To mariz o'lmish nigorim qon to'kar giryon ko'zim,
Ey Navoiy, deya olurmen to'kti qonimni maraz [Ilk devon 1968: 64a].

Shoir bu g'azalda o'z sevgilisining kasallikka chalinganidan iztirob chekadi. Kasallik uning go'zal, nozik yorini notavon holga solgan, shoir esa bundan g'amga botgan. U sevgilisining kasallikdan aziyat chekayotganini ko'rib, o'zi ham ruhiy dardga muhtalo bo'ladi. Shoirning nazarida, kasallikning ishi dard berish bo'lsa-da, u nega aynan uning sevikli yori — "sarvi ravon"ni zaif etgani uchun shikoyat qiladi.

Albatta, Majnun Laylini uchratguncha barcha bilimlarni egallashi kerak edi va buning uchun Navoiy keltirgan epizod eng ideal epizod. Shu bilan birga, Navoiy ilk mahbubasi holatini Layli orqali ifodalab, Laylining tasvirini, sifatlarini ifodalaganda, ko'z oldida shu go'zal bo'lgandir, ehtimol.

Shoir Laylining go'zalligi va nazokatini yuksak badiiy pardalarda tasvirlar ekan, uning siymosida nafaqat husn, balki ichki kamolot, aql-zakovat va ma'naviy poklikni ham mujassam etadi. Navoiy Layli obrazini yaratishda uni oddiy muhabbat timsoli sifatida emas, balki zamonasining ma'naviy yetuk insoni sifatida ko'rsatadi.

Ul donag'a sayd o'lub bir odam,
Bu donag'a barcha ahli olam.
Shahdi labidinki, komi shirin,
Andin kelibon kalomi shirin.
La'lida yig'ib zaxirayi jon,
Og'zi suyi anda shirayi jon [Alisher Navoiy 2021: 68].

Layli obrazida go'zallik va ilm bir-birini to'ldiruvchi ma'naviy fazilatlar sifatida talqin etiladi. Shoir nazarida, haqiqiy go'zallik faqat tashqi husnda emas, balki inson tafakkuri va ma'naviyatida ham mujassam bo'lishi lozim. Laylining ushbu xislatlarga egaligi, ayniqsa, uning Majnunni ilk bor ko'rgan paytdiagi ruhiy sezgirliги va tashabbuskorligi orqali namoyon bo'ladi. U Majnunning ichki holatini chuqur his qila oldi, qalb ko'zi bilan uni tanidi. Shu tariqa, Layli shaxsida aql va go'zallik, tafakkur va tuyg'u, zohir va botin uyg'unligi shoir tomonidan yuksak badiiy-ma'naviy darajada ifodalangan.

Jomiy asarida voqealar taxminan Laylining o'smirlik davridan, 14 yoshlar atrofidan boshlanadi. Jomiy bu yoshni aniq ko'rsatmagan bo'lsa-da, Majnun tasvirida 14 yosh qayd etilgani sababli, Laylining yoshi ham shu davrga to'g'ri keladi, deb taxmin qilish mumkin. Jomiyning talqinida Layli faol obraz sifatida gavdalansa-da, dostonning boshlanishida u nisbatan passiv holatda ko'rinadi.

Jomiyning "Layli va Majnun" dostoni Navoiyning talqinidan yana bir muhim jihat bilan farqlanadi. Xususan, Jomiyda Majnun Laylini, avvalo, eshitish orqali tanib, uning go'zalligi va kamoloti haqidagi ovozlar qulog'iga yetadi. Bu holat tasodifiy emas, balki ramziy ma'no kasb etadi. Mazkur ramziy tasvir orqali muallif Majnun Laylini tanish jarayonini Allohni avvalo eshitish, ya'ni ilohiy haqiqatni idrok etish jarayoniga qiyos qiladi. Shu tariqa Jomiy insoniy muhabbatni ilohiy muhabbat bilan uyg'unlashtirgan holda, Majnun Layliga bo'lgan muhabbatini ilohiy haqiqatga yetaklovchi vosita sifatida talqin etadi.

Ovozasini eshitgach, so'ngra Laylini ko'rgan Majnun orqali shoir uning go'zallikda tengi yo'q sifatleri bilan tasvirlaydi:

Оҳучашме, ки гӯй оҳу
Чашмаш ба назора дӯхт дар рӯ.
Чун лаъл лабе, вале на аз санг,
Чун май дар луфту лаъл дар ранг.
Кӯчак даҳане, аҷаб шакарбор,
Занбӯри асал магар ба гулзор [Ҷомӣ. 1988: 98].

Mazmuni: Uning ko'zlari go'yo ohuning ko'ziga o'xshar edi. Uning lablari la'l (qimmatbaho tosh) kabi qizil edi, biroq bu qizillik toshning sovuqligidan emas, balki mayning yumshoqligi va la'ning rangi bilan uyg'un edi. Uning og'zi juda kichkina, ammo nihoyatda shirin edi. Go'yo asalari gulzorda yig'gan eng totli asal ham bu shirinlik bilan tenglasha olmasdi.

Har ikki dostonida Layli go'zallikda tengi yo'q obraz sifatida tasvirlanadi. Mualliflar Laylining tashqi husnini ilohiy go'zallik timsoli darajasiga ko'taradilar. Laylining siymosida nafaqat jismoniy go'zallik, balki ma'naviy komillik, iffat, hayo va ruhiy noziklik kabi fazilatlar mujassamlashtirilgan. Shu bois Laylining go'zalligi tasodifiy tasvir emas, balki ramziy ma'noga ega bo'lib, u muhabbat, poklik va ilohiy haqiqatning badiiy ifodasidir.

Jomiyda Layli mard, jasur obraz. U Majnunni sinovdan o'tkazadi va faqat sinovdan muvaffaqiyatli o'tgach, ahd-u vafo bog'laydi. Bu jihat Jomiy asarining tasavvufiy ruhini aks ettiradi, ya'ni inson ilohiy haqiqat sari yo'l oladi, ammo bu yo'l sinov va tavba orqali tozalanishni talab etadi. Shu sababli Majnun dastlab Layli tomon yo'lga chiqqanida, (Allohga emas) o'z tuyasiga suyanadi, keyinchalik esa bundan tavba qiladi. Bu tavba ruhiy poklanish va chin muhabbat sari qaytish jarayonining ifodasidir. Layli esa Majnunni sinab, uning muhabbatining sofligiga ishonch hosil qiladi.

Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida esa Laylining Majnunga bo'lgan munosabati boshqacharoq talqin etilgan. Navoiyda Majnun muhabbatini avval boshdan samimiy, sof va ilohiy mohiyat kasb etadi. Layli

Majnunning bu sofligini ko'rgach, unda ilohiy go'zallik tajalliy qiladi va Majnun shu go'zallikka mazhar sifatida namoyon bo'ladi. Natijada Layli uni chin ma'noda "taniydi", ya'ni Majnunda oddiy inson emas, Haq jamoli tajalliysini idrok etadi.

Dostonlarda har ikki Laylining zohiran erksiz inson qiyofasida tasvirlanishi zahirida insonning Allohga muhabbati aks etgan. Har ikki Layliga bo'lgan munosabat sof ilohiy ishq tushunchasining oddiy odamlar uchun begona va tushunarsiz ekanligini ko'rsatadi.

Binobarin, Laylining holini Jomiy erksiz obraz sifatida Majnunga yozgan xatida o'z tilidan quyidagicha tasvirlaydi:

Мардон ҳама чо хучастаҳоланд,
Бечора занон, ки бастаболанд,
Омадшуди ишқ кори зан нест,
Зан молики кори хештан нест [Ҷомӣ. 1988: 171].

Mazmuni: Erkaklar har bir nafasda ozoddirlar, bechora ayollar esa doim qafasga mahkum. Sevgi mashmashasi ayol kishi uchun emas, bu ishni ayollar eplolmaydi. Agar ayolning sevib qolgani oshkora bo'lsa ayb, erkaklarga esa hunardir.

Alisher Navoiy ham ayollar taqdirini Laylining Majnunga yozgan maktubida shunday ifodalagan:

Sening necha kim g'amingg'a yo'q mahl,
Chun er kishisen bu sahl erur, sahl.
Har sori uray desang taningni,
Tutquchi tikandur etagingni.
Etak dag'i poybanding ermas,
Davri zihi ham kamanding ermas [Navoiy. 2021: 191].

Mazkur qarash, ayniqsa, Jomiyning "Layli va Majnun" dostonida aniq va rang-barang badiiy vositalar orqali berilgan. Bu orqali Jomiy o'z dostonida inson ruhining ilohiy va sof ishqini madh etish maqsadini yorqinroq ifodalashga muvaffaq bo'ladi. Jomiyning bunday hayotiy fikr-qarashlari jamiyatda ayollar o'rnini ko'rsatishga imkon beradi va ayni paytda, insonning ma'rifatsizligi uning keng ma'nodagi muhabbatga kuchli munosabatini namoyish qiladi va bu quyidagi — Majnunga bir odamninhg Layli erga tekkani haqidagi xabarni keltirganida uning g'amnok o'tirganini ko'rganiga oid parchada o'z ifodasini topgan:

Зан кист? Фусуни сеҳру найранг,
Аз ростияш на бўй, не ранг.
Гар бигузорӣ, шавад ҳавогард,
В-ар бифшорӣ, бимирад аз дард [Ҷомӣ. 1988: 157].

Mazmuni: "Ayol o'zi kim? U sehr-u nayrang afsuni, to'g'riligidan na hid bor, na rang. Agar ayolni kechirsang, havolanadi, agar bosim qilsang, darddan o'lib qoladi".

Jomiy, hatto Laylining eri vafot etgandan so'ng elning tili tiyilgani, hatto malomat qilishdan to'xtaganini aytadi. Bu esa odamlar shuncha payt,

hatto Layli turmushga chiqqandan keyin ham malomat qilib yurishganligini anglatadi.

Xuddi shu nuqtayi nazardan bilan qaraydigan bo'lsak, har ikki dostonidagi otalarning xarakteri, xatti-harakatlari, Layliga bo'lgan munosabatlari oydinlashadi.

Har ikki ota ham Majnunning ishqidan xabardor bo'la turib, qizning ko'nglini so'ramay boshqa bir odamga turmushga berishadi.

Jomiy dostonida Navoiydan farqli ravishda, Saqif qabilasidan bo'lgan bir yigit Layliga sovchi bo'lib kelganida, Laylining otasi qahri qattiq, bemehr inson bo'lishiga qaramay, qarorni onasi bilan maslahatlashadi. Bu esa, Laylining otasi o'z ayolining fikriga e'tibor qiladigan inson sifatida talqin etilishini anglatadi. Ammo shoir Laylining onasi ham Allohga bo'lgan ishqdan mosuvoligini aytadi:

Гуфто, ки муносиб асту лоик
Ин кор ба ҳоли ҳар ду ошиқ.
Лайли чу ба ин шавад ҳамоғӯш,
Аз ёри куҳан кунад фаромӯш.
Маҷнун чу аз ин хабар барад бўй,
Дар орзӯи дигар кунад рӯй.
Мо ҳам бираҳем дар миёна
Аз гуфтушуниди ин фасона [Ҷомӣ. 1988: 150].

Mazmuni: "Onasi ularning bir-birlariga juda munosibligini aytadi, agar ikkovi oshiq-u ma'shuq bo'lsa, buning quchog'iga Layli kirsa, avvalgi yorini, ehtimol, unutadi. Majnun bu gaplardan xabardor bo'lib, o'ziga boshqa joydan yor izlaydi. Bu orada biz ham ancha tinchirdik va shu bilan har xil gap-so'zlarga barham yetardi".

Laylining onasi kelgan sovchilarga darhol rozilik beradi, chunki hammasidan asosiysi, bu — el orasida gap-so'zdan qochish. Odatda, qizlar onasi bilan sirdosh bo'ladilar, ammo bu yerda ota va ona hamfikir. Shu o'rinda Laylining holati:

Бо модару бо падар чӣ гӯяд?
Берун зи ризояшон чӣ чӯяд? [Ҷомӣ. 1988: 189].

Mazmani: Ota-onasiga nima deb so'zlaydi? Ra'yini qaytarib, nima deydi?

Tasavvufda insonning Haq ishqiga yetishish yo'lida uchraydigan katta g'ovlardan biri, bu — dunyoga ya'ni zohirga bog'lanish, o'ralib qolishdir. Jomiy dostonida Laylining onasi shunday insonlardan, u zohirbin, ayni paytda, shariat me'yorlari doirasidan tashqariga chiqmaydi, botinni — qalb, ishq mohiyatini idrok eta olmaydigan obraz qiyofasida namoyon bo'ladi.

Ibn Salom va Saqif qabilasidan chiqqan yigitni birlashtiruvchi umumiy jihatlar, bu — ularning har ikkisi ham kiborlardan ekanligi, mol-u davlati behad ko'pligi va Laylining go'zalligiga mahliyoligi.

Bulardan tashqari, Navoiyda Ibn Salom or-nomusdan, shafqat va adolatdan zarracha asari bo'lmagan epizodik obraz. U erta-yu kech aysh-ishratda bo'lgan, kishilarga ozor berishdan zavqlanadigan kishi.

Majnundan farqli sevgining mohiyatini ham, visol zavqi va hijron iztirobini ham bilmaydi. Ibn Salom bir lahzada o'chib qoladigan ehtiros uchqunini sevgi deb tushunadi. Birovlarning orzu-armonini oyoq osti qilish, baxtini barbod berib, o'zining shum muddaosiga erishihni istaydi. U Laylining qalbini o'ziga moyil etolmaydi. Laylining qalbini moyil etish uchun Majnun bo'lish kerak.

Mayparast Ibn Salom nikoh ayyomida ichkilikka berilib ketadi, zaharlanib sharmanda bo'ladi, kasali tutadi va Layli undan qutuladi.

Ibn Salomning vazifasi Jomiy asarida Saqif qabilasidan bir yigitga yuklatilgan. Bu yigit ham mol-u mulki haddan ziyoda, dasht-u biyobonda qo'y-u echkisi to'la, xullas unga teng keladigan boy savdogar yo'q. Tabiiyki, ta'rifini bir eshitgandayoq Laylining otasiga u ma'qul bo'ladi. Bu yigit Layliga garchi uylansa ham, uning visolidan mahrumlik dog'ida kasal bo'lib vafot etadi.

Shu o'rinda, Jomiy Majnunga xos bo'lgan xarakter qirralarining yana bir tomonini mahorat bilan tasvirlaydi. Laylining eri vafot etganini eshitgach, Majnun yig'laganini ko'rgan Qosid Majnundan Laylining nikohini eshitganida, g'am chekib yoqasini chok qilgani, endi esa o'lganini eshitib yig'lashining boisini haqida so'raganida, u shunday deb javob beradi:

В-имрӯз сирииш аз он фишонам.

К-афтод отаи даруни ҷонам,

К-он, к-ӯ танҳо на симу зар бохт,

Ҳар нақд ки дошт, ҷумла дарбохт [Ҷомӣ. 1988: 190].

Mazmuni: "Bugun jonimning ichiga otash tushgandan yig'layman. U yigit barcha boyligini boy berdi. Va yana hammasini yutqazdi".

Majnun Laylining g'amida vafot etgan yigitning ishq yo'lida hech nimaga ulgurmay vafot qilganidan qattiq kuyunadi. Majnun o'zidan kelib chiqib aytgan bu gaplari dostonning umumiy konsepsiyasi bilan uyg'unligi jihatidan ham ahamiyatli.

Jomiyda Laylining kuyovga bor haqiqatni aytishga jur'ati yetadi. Xudoning nomini tilga olib, yana bir bor kuyov uchraydigan bo'lsa, ko'ksiga pichoq sanchishi haqidagi qasami mukammallik belgisidir. Agar Layli sadoqatiga xiyonat qilsa, bu tanani yo'q qilmoqchi. Bu esa nafsga qarshi kurash, haqiqiy muhabbatga xiyonat qilmaslikdir.

Har ikkala dostonda ham Laylining otasidek ishqdan mosuvo, qalbi ko'r insonlarga, tabiiyki, Majnun ishqdagi darajasini tushunish amri mahol. Har ikki ota "junun" holatiga tushgan, el orasida "gap-so'z" bo'lgan Qaysga qizini berishdan or qiladi, Majnun boshiga dahshatli kunni solishi bilan tahdid etadi.

Otalar bu o'rinda zohiriy dunyo, aql bilan cheklangan odam, jamiyat qoidalari va odatlarini Haqning muhabbatidan ustun qo'yuvchi ongni ifodalaydi. Majnunlar esa ishq yo'lida. Ishq yo'liga aql bilan emas, balki qalb bilan boriladi.

Jomiydan farqli o'laroq, Navoiyda mavjud bo'lgan obraz bu enaga obrazi dir. O'zining samimiy va ko'ngilchanligi bilan nafaqat Layliga, balki Majnunga ham mehribonligi bilan diqqatga sazovor. Navoiy doston boshida enaga orqali bu ishqning yashashiga imkoniyat yaratish, uning

ruhiy-ma'naviy makonda davom etishi uchun ham ushbu ayol timsolini kiritgan. Uning xarakter xususiyatlari namoyon bo'lishi, ayniqsa, Ibn Salomdan Layliga sovchi kelganda otasi unga rozilik berganidan keyin Majnun ishq o'tida kuyib, hijron g'amida azoblarga giriftor holatda bo'lgan Layliga bu xabarni aytishni lozim topmaydi:

Anglab edi doyai jigarso'z,
Ham ul necha mahrami g'amando'z [Navoiy 2021: 128].

Enaga obraziga qarama-qarshi yana bir kampir obrazi mavjudki, uni kiritishdan maqsad — u Laylining yomon xabarni eshitgandan keyingi holatini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Laylining Ibn Salomga turmushga chiqishi xabarini enaga va Laylining bir necha mahramlari yashirishgan bo'lsalar, bu kampir xabarni Layliga yetkazadi va uning g'am-u kulfatini yanada oshiradi. Shuning uchun ham Navoiy uni aqli zaif kampir sifatida tasvirlagan bo'lsa-da, bu obraz dostonning umumiy tasavvufiy konsepsiyasida muhim o'rin egallaydi.

Jomiydan farqli o'laroq, Navoiyda Layli mana shu xabarni eshitgach, uning holati bayonini 19- bobda alohida keltiradi va albatta buning sabablari bor. Xabarni eshitgan Laylining ahvoli badtar og'irlashadi va u hushidan ketadi. O'ziga kelgach, Majnunni yodga olib aytadi:

Dardimdin o'zi yodob ekinmu,
Hajrimdin ishi xarob ekinmu?
Bas yo'q edi muncha mehnat-u g'am
Kim, bilgusidur bu qissani ham.
Bu ishki emas xujastafoli,
Xud bo'lmog'ining ne ehtimoli.
Olam eli bir yon o'lsa yaksar,
Mumkin emas o'lmog'i muyassar!
Sog'ing'ay ul emgak oshnosi,
Mendin bo'lmoq bu ish rizosi [Navoiy 2021: 136].

Mazkur misralarda Layli butun dunyo unga qarshi tursa ham, Alloh irodasiga xilof ish sodir bo'lishi mumkin emasligini ifodalamoqda (shuning uchun ham unga aynan kasalmand Ibn Salom duch keladi), ammo o'zini emas, Majnunning to'yga Layli rozi bo'lgan deb o'ylashidan azobda va bu borada o'zini bechora deb atashi yana e'tiborni tortadi.

Laylining ushbu holati bilan dostonning keyingi epizodi o'rtasida nozik bog'liqlik mavjud. Keyingi bobda Majnunning otasi uni Ka'ba ziyoratiga olib borgani tasviri keladi. Bundan Majnunni Alloh o'z huzuriga chorladi degan ma'no kelib chiqadi. Bu voqea ramziy jihatdan Majnunning ruhiy poklanish va visol sari yo'lga chiqishini bildiradi.

Har ikki dostonda ham Layli obrazi Majnunning ishqiy iztiroblari va ruhiy izlanishlarini ifodalovchi mazhar sifatida gavdalantirilgan. Layli bilan bog'liq epizodik obrazlarning har biri uning atrofidagi insoniy va ijtimoiy munosabatlarni aks ettirsa-da, ularning Layliga bo'lgan munosabati aslida, ishqning, Allohga bo'lgan muhabbatning ramziy namoyishi sifatida talqin qilinadi. Chunki tasavvufiy dunyoqarash bo'yicha nazar solinsa, butun borliqning yaratilishi ishq tufaylidir. Shu

tariqa, Jomiy va Navoiy dostonlarida ishq nafaqat insoniy hissiyotlar, balki ruhiy yuksalish va ilohiy visol vositasi sifatida ham badiiy tarzda ifodalangan.

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy dostonlarida Layli obrazining talqini o'ziga xos ma'naviy va ruhiy mazmun kasb etadi. Navoiy asarida Layli Majnunning ishqiy darajasiga teng ruhiy ishonch va sobitlik egasi sifatida gavdalanadi. U insoniy muhabbatning yuksak shaklini o'zida mujassam etib, ruhiy yetuklik, sabr va sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi. Navoiyning Laylisi go'zallikdan tashqari, ichki poklik va ilohiy muhabbatni anglagan shaxs darajasiga ko'tarilgan. Shu bois u Majnun singari ishq yo'lida ruhan sobit, iztirobni Haqqa yetishish vositasi sifatida qabul qiluvchi ma'rifat ahli sifatida ko'rinadi.

Jomiyda esa Layli obrazi boshqacha ruhiy talqinda beriladi. Shoir uni Majnun singari hali chin ishq mohiyatini to'liq anglay olmagan, lekin riyozat, ya'ni sabr va iztirob orqali asta-sekin ruhiy yetuklikka erishuvchi obraz sifatida tasvirlaydi. Jomiyning tasavvufiy konsepsiyasiga ko'ra, Laylining muhabbati ham ruhiy sayr va suluk natijasida komillikka yetadi. Uning ichki kechinmalari va iztiroblari Majnunning ishqiy holatlari bilan uyg'unlashib boradi: Majnun muhabbatda yuksalgani sari, Laylining ham muhabbati kuchayadi, bu esa ularning ruhiy birlashuvi va ilohiy ishqqa tomon harakatini ifodalaydi. Ishaq shunday qudratki, u avval birovni ma'shuqqa oshiq qiladi, keyin ma'shuqning o'zini oshiqqa aylantiradi. Bu ayniqsa, Laylining o'limidan oldin onasiga qilgan vasiyatida ham yaqqol namoyon bo'lgan:

Рӯи сафарам ба хоки ӯ кун,
Чоям ба мазори поки ӯ кун!
Бишкоф замини зери пояш,
Зан ҳуфраз ба қабри дилкушояш,
Неҳ бар кафи пойи ӯ сарамро,
Соз аз кафи пояш афсарамро!
То ҳашр, ки дар вафош хезам,
Осуда зи хоки пош хезам. [Чомӣ 1988: 234]

Mazmuni: "Jonimni topshirganimda sag'anam Majnunning mozorida bo'lsin. Uning oyoqlari ostidan chuqur kovlab, meni o'sha joyda ko'minglar. Boshim uning poyida bo'lsin, tovonni boshimda xuddi toj kabi bo'lsin. Mahshargacha mana shunday Majnunning xoki poyida yotay".

Laylining vasiyati Majnun kamoloti darajasining qay darajaga yetganligining yorqin isbotidir. Fikrimizcha, Jomiy aynan shu maqsadda avval Laylining o'limi tasvirini keltiradi. Chunki, Majnunning ishq o'ti haroratini, ishqqa sadoqatini ko'rib endi dunyoda bir qadam ham tashlay olmaydigan Laylining so'zlari edi bu.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, Layliga Majnun o'limi haqida hech kim xabar bergani yo'q. Chunki uning qalbi ham Navoiy aytganidek, jahon oyinasi kabi tiniqlashgan edi. Arab yigit Layli diyoriga borib, Majnun vafoti xabarini hali aytmasidan Layli bu mash'um hodisani oldindan sezganini va bunga javoban arab yigit uning bu sezgilari to'g'ri ekanligini aytadi:

Бигрист аробию фиғон кард,
К-эй хоки ту моҳи осмонгард,
Валлах, ки дили ту рост гуфтаст
В-он гавҳари роз рост суфтаст,
Мачнун зи ғами ту мурд мискин
В-аз ҳачри ту чон супурд мискин [Ҷомӣ 1988: 226].

Mazmuni: Bularni eshitgan arab yigit oh-u voh etib yig'ladi. Va dedi "Ey, sening tal'ating samodagi oy, afsuski, diling rostini aytibdi, tiling esa bo'lib o'tgan voqeani aytdi. Majnun bechora g'amingda jon berdi, firoqingga chora topolmay vafot etdi".

Jomiy ijodida arab yigit obrazi syujetning muhim g'oyaviy-badiiy unsurlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Mazkur obraz Majnunning she'rlari xalq orasida keng tarqalishida vositachilik vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, arab yigit obrazi orqali muallifning maqsadi — Majnun o'limi haqidagi xabarni uning qabilasi, ota-onasiga, Layliga yetkazish. Ammo ushbu xabar bildirilishidan avval uni faqat Layli sezadi. Aslida, shoir ushbu xabarni ota-onasi va boshqalarning sezmasligi orqali ularning qalbidagi ishqning aksini namoyish qilmoqda. Layli qalbining esa ishq yo'lida ruhiy kamolotga erishgani va uning muhabbati ilohiy darajaga ko'tarilgani namoyon bo'ladi.

Rus sharqshunosi, Ye. E. Bertels Laylining iztiroblari ancha kam tasvirlanganligi va uning vafoti Nizomiyda bo'lgani kabi asoslangan bo'lsa-da, bu hodisani Jomiy tomonidan ilgari surilgan so'fiyona konsepsiya bilan bog'lay olish imkoni bo'lmaganligini aytadi. Biz bu fikrga qo'shilmagan holda aytishimiz mumkinki, Nizomiy Ganjaviyda ham, Xusrav Dehlaviyda ham Laylining o'limi xabarini odamlar Majnunga yetkazadilar. Jomiyda esa, Laylining qalbi Navoiydagi Majnun qalbi singari oinayi jahonnomo darajasiga yetgani uchun (Layli doston boshida g'iybatchilarning gapiga ishonib, Majnunni ostonasidan haydagan edi. Laylining ishq Majnunning ishq kabi doston davomida asta-sekinlik bilan paydo bo'ladi) hech kim unga xabar bergan emas. Mana shu epizodning o'zi so'fiyona konsepsiya bilan bog'lay olish uchun to'la asos bo'ladi. Chunki Navoiydan farqli o'laroq, Jomiyda Majnun ota-onasidan oldin vafot etadi, arab yigit qabilaga, Majnun ota-onasiga Majnun vafoti haqida xabar beradi, ammo faqat Layligina buni xabardan oldin sezadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Jomiy tomonidan keltirilgan mazkur epizod ota-ona hamda qabila vakillarining muhabbati ma'rifiy darajaga yetmaganini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu epizod Jomiyning ishq konsepsiyasini falsafiy talqin etishdagi maqsadini ochib beruvchi asosiy – markaziy nuqta sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyda esa aksincha, Majnun Laylining o'limini hech kim xabar bermasidan oldin sezadi. Majnun ota-onasining o'limini sezishi bilan unda o'zini aybli hisoblab, ahvoli og'irlashadi. Layli ham ayriliq azobini cheka-cheka dardga chalinadi. Bu dunyodan ketish fursati yaqinlashganini sezib, onasiga vasiyat qoldiradi, ya'ni u Majnun kelishiga ishongan, birga ketishlariga xalaqit qilmasliklarini o'tinadi. Chunki oshiq-ma'shuq ruhi allaqachon bir-birlari bilan topishgan va barcha to'siqlar olib tashlangan:

Tufrog‘ima tufrog‘ini qotg‘ay,
Ruhini mening sari uzotg‘ay, — deydi.

Laylining vasiyatiga ko‘ra har ikkalasini bir kafanga o‘raydilar va bir qabrga qo‘yadilar. Majnunga bu haqda hech kim xabar bermagan bo‘lsa-da, bu hol o‘ziga ayon bo‘ldi. Jomiyda esa, bu Layliga ayon bo‘ladi, chunki unda avval Majnun vafot etadi.

Ey ishq ajib kimiyosen,
Bal oinai jahonnomosen.

“Layli va Majnun” dostonida Navoiy Iskandar ko‘zgusini ikkinchi nomi bilan “Oyinayi jahonnamo” (olamni ko‘rsatuvchi oyna) deb ataydi va uni ishqqa qiyoslaydi [Исмоилов 2019:122].

Xulosa

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodidagi “Layli va Majnun” dostonlari Sharq adabiyoti tarixida inson ruhiy olami va ma’naviy kamoloti g‘oyalarini eng yuksak badiiy ifodasini topgan asarlardandir. Har ikki shoir Layli obrazini yaratishda uni oddiy muhabbat timsoli sifatida emas, balki go‘zallik, aql, poklik va ma’naviy yetuklik ramzi sifatida tasvirlaydilar. Abdurahmon Jomiy Layli obrazi orqali insonning ilohiy haqiqat sari yo‘l olishi sinov, sabr va poklanish orqali amalga oshishini, ruhiy kamolot sari intiluvchi, ishq sinovlari orqali komillikka yetuvchi timsol sifatida badiiy talqin etadi. Navoiy asarida Layli avvaldan ruhan yetuk va sobit e’tiqodli siymo sifatida gavdalanadi.

Har ikki talqin soʻfiylik nazariyasiga tayangan — Navoiyda Layli ilohiy haqiqatni anglagan komil oshiq, Jomiyda esa bu haqiqat sari borayotgan solik sifatida tasvirlanadi. Chunki, Jomiyda Layli avval boshda hali chin ishqni toʻliq anglamagan, ammo Majnun muhabbati kuchaygan sari u ham maʼnaviy jihatdan oʻsib boradi. Har ikki shoir uchun Layli, bu — nafaqat muhabbat timsoli, balki ruhiy poklik va ilohiy haqiqat sari intiluchi inson qalbining ramzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Абдурахмон Ҷомӣ. Осор. Ҷилди панҷум. — Душанбе: Адиб, 1988. — 243 б.
- Абу Ҳомид Ғаззолий . Муҳаббат ва шавқ. — Тошкент: Zumar, 2024. — 144 б.
- Абдуқодиров А.. Навоӣ ва ваҳдат ул -вужуд таълимоти. — Хӯҷанд: 1995. — 295 б.
- Alisher Navoiy. Layli va Majnun. — T.: Tamaddun, 2021. — 290 б.
- Афсаҳзод А. Аҳду вафо// Садои Шарқ, 1968. №8
- Belal Saber Mohamed. Leylâ ile Mecnûn mesnevisinin arap, fars ve türk edebiyatı'nda ele alınış biçimi ve Larendeli Hamdi'nin eseri. cilt 1 (inceleme). — İstanbul: 2004. — 725 б.
- Ilk devon 1968, ФАН. — 286 б.). بیت-۱۲۹. تاشکینت ۱۹۶۸. فن نشریاتی ر.س.اوزبکستان س. ایلک دیوان. علیشیر نوابی

- Исмоилов И. Алишер Навоий «Садди Искандарий» достонининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. бўйича PhD. ...дисс. — Тошкент, 2019. — 162 б.
- Комилов Нажмиддин. Тавҳид асрори. — Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда Ўзбекистон, 1999. — 207 б.
- Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. — Т.: Ёзувчи, 1996. — 447 б.
- Мақсуд Шайхзода. Асарлар. 4-том. Ғазал мулкининг султони. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — 372 б.
- Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоя” девони асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. — Тошкент, 2005. — 148 б.
- Қаюмов Азиз. Ишқ водийси чечаклари — Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. — 244 б.
- Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. — Т.: Фан, 1992. — 80 б.
- Ваҳоб Раҳмонов. Истиқлол даври навоийшунослиги. 12-жилд. — Тошкент: 2022. — 240 б.
- Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий Хаёт. И.Хаккул тарж. — Т.: Мовароуннахр, 2004. — 264 б.
- Ҳаккул И. Очилов Э. Ишқ ва ҳайрат олами. — Т.: O‘zbekiston, 2016. — 304 б.

References

- Abduqodirov, A. (1995). *Navoi and the doctrine of Wahdat al-Wujud*. Khujand.
- Abdurahmon Jami. (1988). *Works* (Vol. 5). Adib.
- Abu Hamid Ghazali. (2024). *Love and longing*. Zumar Publishing.
- Afsahzoda, A. (1968). Promise and loyalty. *Sadoi Sharq*, (8).
- Alisher Navoi. (1968). *First Divan*. Uzbekistan SSR Fan Publishing House.
- Alisher Navoi. (2021). *Layli and Majnun*. Tamaddun Publishing House.
- Belal Saber Mohamed. (2004). *The treatment of the Leyla and Mecnun Masnavi in Arabic, Persian, and Turkish literature, and the work of Larendeli Hamdi* (Vol. 1). Istanbul.
- Haqqul, I., & Ochilov, E. (2016). *The world of love and wonder*. Uzbekistan.
- Ismailov, I. (2019). *Comparative analysis of Alisher Navoi's epic poem "Saddy Iskandariy"* [Doctoral dissertation, Tashkent State University]. Tashkent.
- Komilov, N. (1996). *Sufism*. Yozuvchi Publishing House.
- Komilov, N. (1999). *Secrets of Tawhid*. Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House and Uzbekistan.
- Maqsud Shaykhzoda. (1972). *Collected works: Volume 4. The sultan of the kingdom of ghazals*. Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House.
- Mullakhojayeva, K. (2005). *Sufi symbols and artistic harmony in Alisher Navoi's ghazals (based on the Divan "Badoe' al-Bidaya")* [Doctoral dissertation, Tashkent State University]. Tashkent.
- Qayumov, A. (1985). *Flowers of the valley of love*. Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House.
- Sultonmurod, O. (1992). *Love, lover and beloved*. Fan.